

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI UCHUN OLIY TA'LIMNING STRATEGIK AHAMIYATI

Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0007-1436-7531

E-mail: sharopovtemirmalik@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21460276>

Annotatsiya: Mazkur tezis raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish korxonalari oldiga qo'ygan yangi vazifalar, xususan, raqamli ko'nikmalarga ega, innovatsion tafakkur va texnologik kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq masalalarni yoritadi. Oliy ta'lim, sanoat hamkorligi va korporativ integratsiya mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish korxonalari, oliy ta'lim, integratsiya, kadrlar tayyorlash, innovatsion taraqqiyot, raqamli transformatsiya, sanoat samaradorligi, texnologik kompetensiya, ilm-fan va sanoat hamkorligi, dual ta'lim modeli, korporativ laboratoriyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqamli ko'nikmalar

STRATEGIC IMPORTANCE OF HIGHER EDUCATION FOR MANUFACTURING ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li

Karshi State University. PhD student

ORCID: 0009-0007-1436-7531

E-mail: sharopovtemirmalik@gmail.com

Abstract: This thesis highlights the new challenges that the rapid development of the digital economy poses to manufacturing enterprises, in particular, the need to

train specialists with digital skills, innovative thinking and technological competence. The impact of higher education, industrial cooperation and corporate integration mechanisms on economic efficiency is analyzed.

Keywords: *digital economy, manufacturing enterprises, higher education, integration, personnel training, innovative development, digital transformation, industrial efficiency, technological competence, science and industry cooperation, dual education model, corporate laboratories, economic efficiency, digital skills*

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Шаропов Темирмалик Рустам угли

Каршинский государственный университет. аспирант

ОРЦИД: 0009-0007-1436-7531

Э-почта: sharopovtemirmalik@gmail.com

Аннотация: *В данной работе освещаются новые вызовы, которые стремительное развитие цифровой экономики ставит перед производственными предприятиями, в частности, необходимость подготовки специалистов с цифровыми навыками, инновационным мышлением и технологической компетентностью. Анализируется влияние механизмов высшего образования, промышленного сотрудничества и корпоративной интеграции на экономическую эффективность.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, производственные предприятия, высшее образование, интеграция, подготовка кадров, инновационное развитие, цифровая трансформация, промышленная эффективность, технологическая компетентность, научно-промышленное сотрудничество, модель дуального образования, корпоративные лаборатории, экономическая эффективность, цифровые навыки*

Kirish. Bugungi global iqtisodiyotning yangi bosqichi sifatida e’tirof etilayotgan raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish sohalarining tuzilmasini tubdan o’zgartirmoqda. Sun’iy intellekt, robototexnika, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, raqamli ta’minot zanjirlari, katta ma’lumotlar (Big Data) va sanoat interneti (IoT) kabi texnologiyalar korxonalarda raqobatni kuchaytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Zamonaviy raqamli ishlab chiqarish tizimida muvaffaqiyatga erishish korxonalar tomonidan texnik-texnologik bazani yangilashgina emas, balki raqamli ko’nikmaga ega, innovatsion fikrlovchi va strategik qarorlar qabul qila oladigan yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishni ham talab etadi.

Mazkur jarayonlar sharoitida oliy ta’lim tizimining roli strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan oliy ta’lim korxonalarining ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni sanoatga tatbiq etish va iqtisodiyot uchun yangidan yangi innovatsion yechimlarni shakllantirishning markaziy bo’g’ini hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, “universitet – fan – sanoat” uchlik modeli raqamli sanoat rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o’sishni tezlashtirishning asosiy dvigatellaridan biri bo’lib xizmat qilmoqda.

O’zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, real sektorning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o’rinlari yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirish bo’yicha davlat siyosati olib borilmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda oliy ta’lim tizimining korxonalar bilan uzviy hamkorligi, kadrlar tayyorlash jarayonini amaliyotga yo’naltirish, dual ta’lim va korporativ ta’lim mexanizmlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari uchun oliy ta’limning strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan o’rganish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali takliflar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish sohasida zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish jarayonida kadrlar tayyorgarligining ahamiyatini ilmiy asoslab, oliy ta'lim tizimining sanoat ehtiyojlariga mos kelish darajasini tahlil qilish hamda ushbu moslikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Zamonaviy ishlab chiqarish muhitida faqat texnologik infrastrukturaning mavjudligi emas, balki uni tushunib, boshqara oladigan malakali kadrlarning mavjudligi ham xuddi shunchalik muhimdir. Shu bilan birga, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik yangilanish va kadrlar tayyorgarligi o'rtasidagi bo'shliq hali ham keng saqlanib kelmoqda. Shu sababli ham ushbu tadqiqot kadrlar tayyorgarligi tizimini amaliy ehtiyojlarga qanday moslashtirish mumkinligini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— ishlab chiqarish sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning turlari hamda ularni samarali boshqarish uchun talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalarni aniqlash;

— oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorgarligining joriy holatini, ayniqsa amaliy yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalar darajasini tahlil qilish;

— korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash jarayonida kadrlar tayyorgarligidagi asosiy muammolar va ularning sabablarini aniqlash;

— xalqaro tajriba (ayniqsa, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar) asosida kadrlar tayyorgarligini takomillashtirishning samarali mexanizmlarini o'rganish;

— oliy ta'lim tizimi, sanoat korxonalari hamda davlat organlari o'rtasida uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlash orqali kadrlar tayyorgarligini amaliy va innovatsion yo'naltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalarni bajarish orqali tadqiqot nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda milliy kadrlar tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda nazariy ham, amaliy ham jihatdan chuqur tahlil olib borish maqsadida aralash (mixed methods) yondashuv qo‘llangan bo‘lib, u sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlarining integratsiyasiga asoslangan. Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida zamonaviy ta’lim nazariyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competency-based approach), sanoat 4.0 tushunchasi hamda kadrlar rivojlanishi modeli kabi ilmiy ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi kabi rasmiy manbalardan olingan hujjatlar, strategik dasturlar hamda statistik ma’lumotlar ham tahlil ob’ektiga kiritilgan.

Shunday qilib, ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini, amaliy qo‘llanilish imkoniyatini hamda taklif etilayotgan yechimlarning realistik asosga ega ekanligini ta’minlaydi.

Asosiy natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining samaradorligi bevosita kadrlar salohiyati, raqamli ko‘nikmalar darajasi va oliy ta’lim tizimi bilan integratsiya jarayonlari kuchiga bog‘liqdir. Tahlil davomida aniqlanishicha, korxonalarda raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sensor monitoring va big data yechimlarini muvaffaqiyatli joriy etgan ishlab chiqaruvchilar malakali kadrlar bilan ta’minlangan hududlarda joylashgan yoki ta’lim muassasalari bilan uzviy hamkorlik olib borayotganligi bilan ajralib turadi. Xalqaro tajribada, xususan, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya misolida “universitet – fan – sanoat” uchlik modeli orqali korxonalar uchun tayyorlanadigan mutaxassislarning 60–70 foizi bevosita amaliy loyihalar va korporativ laboratoriyalar orqali raqamli ishlab

chiqarishga moslashgan holda yetishtirilishi kuzatildi; bu esa raqamli ishlab chiqarish samaradorligini 25–30 foizgacha oshirishga xizmat qilgan.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi korxonalar faoliyatiga texnologik, tashkiliy va boshqaruv omillari orqali tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonda oliy ta'lim tizimining roli strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ishlab chiqarish korxonalari samaradorligi bevosita raqamli ko'nikmalarga ega kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli kompetensiya (digital skills), analitik fikrlash, axborot texnologiyalaridan foydalana olish, IoT, big data tizimlarini boshqarish hamda raqamli boshqaruv modellarini tatbiq etish qobiliyatiga ega mutaxassislar korxonalar uchun asosiy ustunlik omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda ishlab chiqarish texnologiyalarining 4.0 industrial bosqichga o'tishi ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan o'qitish modelini joriy etish zarurligini kuchaytirmoqda. O'zbekiston va xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki:

Yaponiyada oliy o'quv yurtlari huzurida "korporativ laboratoriyalar" tashkil etilib, talabalarning 40–60% raqamli ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita ishtirok etadi.

Janubiy Koreya universitetlarida IT va muhandislik yo'nalishlarida dual ta'lim dasturlari natijasida ishlab chiqarish korxonalariga tayyor kadrlarning 70% darhol ishga joylashmoqda.

Germaniyada "university–industry cluster" modeli orqali sanoat korxonalari kadrga bo'lgan talabi bo'yicha o'quv dasturlarini bevosita shakllantiradi.

Shu asosda, oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonini faqat nazariy bilimlarga emas, balki amaliy raqamli ko'nikmalarni egallashga yo'naltirish zarur.

Tadqiqotda korxona–ta'lim hamkorligi samaradorligini o'lchash uchun shartli iqtisodiy model (Raqamli iqtisodiyotda korxonalar – oliy ta'lim integratsiyasi samaradorligining iqtisodiy modeli) ishlab chiqildi:

$$E = \frac{PU \times DK \times IT}{XR}$$

Bu yerda:

E – integratsiya samaradorligi,

PU – mehnat unumdorligi o'sishi,

DK – kadrlarning raqamli kompetensiyasi darajasi,

IT – ta'lim va korxona o'rtasidagi integratsiya kuchi,

XR – transformatsiya xarajatlari.

Model ko'rsatdiki, agar korxonalar ta'lim integratsiyasi kuchini (IT) 1,5 baravarga oshirsa, mehnat unumdorligi o'rtacha 22–28 foizga oshishi mumkin. Bu ilmiy jihatdan oliy ta'limning iqtisodiy qaytimi mavjud ekanini tasdiqlaydi.

Qashqadaryo viloyati misolida tahlillar davomida mahalliy korxonalarda uchraydigan muammolar quyidagilar ekanligi aniqlandi (1-jadval)

**1-jadval. Qashqadaryo viloyati misolida tahlillar davomida mahalliy
korxonalarda uchraydigan muammolar**

Muammo	Ta'siri
Kadrlar tayyorlashda amaliyotning yetishmovchiligi	Korxonalarga mos ishchi kuchi tanqisligi
Universitet–sanoat axborot almashinuvi sustligi	Innovatsiyalar sekin kiradi
Raqamli o'quv dasturlari eskirgan	Mutaxassislar bozor talabiga javob bermaydi

Korporativ buyurtma asosidagi ta'limning yo'qligi	Kadrlar ortiqcha yoki mos kelmaydigan yo'nalishlarda tayyorlanadi
--	--

Mazkur yuqoridagi muammolarga yechim sifatida Sanoat – Universitet raqamli klasteri modeli (SURK modeli) taklif etiladi. Modelda yuqoridagi kabi muammolarni tizimli va izchil tarzda hal etilishi ko'zlangan.

Model quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. OTMlarda raqamli ishlab chiqarish laboratoriyalari faoliyati;
2. Korxonalar buyurtmasi asosida o'quv rejalari shakllantirish;
3. Talabalar uchun **"Digital Internship"** (raqamli amaliyot/raqamli stajirovka) amaliyoti platformasi;
4. Raqamli texnologiyalar bo'yicha qo'shma ilmiy markazlar;
5. Natijalarni monitoring qilish uchun KPI tizimi.

Prognozlarga ko'ra modelning 3 yillik qo'llashdan so'ng to'liq joriy etilishi munosabati bilan kutilayotgan natijasida korxonalarda raqamli texnologiyalar joriy etish darajasi 35–45% ga oshadi, mehnat unumdorligi 1,6 baravarga oshadi, yosh mutaxassislarda IT–ko'nikmalar darajasi 2 baravarga yaxshilanadi. Mazkur ilmiy ishlanma shuni tasdiqlaydiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari uchun oliy ta'limdan foydalanish faqat kadr tayyorlash vazifasini emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning strategik mexanizmini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari uchun oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuv — korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish, raqamli kompetensiyaga ega kadrlarni shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishning strategik omili hisoblanadi. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, masalan, avtomatlashtirilgan

boshqaruv tizimlari, IoT-sensorlar, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy modellar, ishlab chiqarishni raqamli boshqarish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday o'zgarishlar ta'lim muassasalaridan yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda: data-analitika, IT-injenerlik, texnologik menejment, raqamli dizayn, ERP va MRP tizimlari bilan ishlash ko'nikmalari.

Korxona raqamli transformatsiyasi samaradorligini baholash uchun quyidagi formula taklif qilinadi:

$$R_s = \frac{(Y_{DT} - Y_T)}{C_d} \times 100$$

Bu yerda:

R_s – raqamli integratsiya samaradorligi (%);

Y_{DT} – raqamli texnologiyalar joriy etilgandan keyingi ishlab chiqarish natijasi (foyda yoki ishlab chiqarish hajmi);

Y_T – transformatsiyadan oldingi ko'rsatkich;

C_d – raqamli integratsiyaga ketgan xarajatlar.

Tadqiqot shuningdek, O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan raqamlashtirish siyosati ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Ammo mavjud muammolar – kadrlar tayyorlashda amaliyot yetishmovchiligi, korxonalar va oliy ta'lim o'rtasida axborot almashinuvi sustligi, korporativ buyurtma asosida kadr tayyorlash tizimining to'liq shakllanmaganligi – jarayon samaradorligini cheklab qolmoqda. Tahlillar shuni tasdiqladiki, agar oliy ta'lim muassasalari huzurida raqamli sanoat laboratoriyalari, IT-ta'lim markazlari, ishlab chiqarish korxonalari bilan qo'shma startap va innovatsion loyihalar tizimli joriy etilsa, korxonalarning

raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirish hamda real sektorda mehnat unumdorligini 1,5–2 baravarga oshirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni anglatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim ishlab chiqarish korxonalari uchun nafaqat kadrlar manbai, balki innovatsion rivojlanishni boshqaruvchi strategik hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari faoliyatining raqobatbardoshligi bevosita bilimli, innovatsion fikrlovchi va zamonaviy raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimining korxonalar bilan strategik integratsiyasi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish va texnologik optimallashtirish imkonini beradi, balki korxonalarning iqtisodiy samaradorligi, mahsulot sifati, eksport salohiyati va investitsion jozibasini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida ta'lim–sanoat hamkorligining zamonaviy modeli, dual ta'lim va korporativ laboratoriyalar tizimini yo'lga qo'yishning amaliy ahamiyati, shuningdek raqamli ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash jarayonining iqtisodiy natijalarga bevosita ta'siri o'rganildi. Xorijiy tajriba tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'ygan korxonalar yuqori daromad, ishlab chiqarish unumdorligi va sifat ko'rsatkichlarida sezilarli o'sishga erishmoqda. Demak, raqamli davrda oliy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi integratsiya – mamlakat sanoatini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot yaratish hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor strategik yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш

концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони Манба:

<https://lex.uz/uz/docs/5073447>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”. Манба:

<https://lex.uz/docs/4545884>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”даги ПҚ–3775-сонли қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/4545884>

4. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2023*. – Geneva: WEF, 2023.

5. Schwab, K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Crown Business, 2016.

6. UNESCO. *Engineering for Sustainable Development: Delivering on the Sustainable Development Goals*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

7. German Federal Ministry of Education and Research. *Dual Vocational Training System: The German Model*. – Berlin, 2022.

8. Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H. A. (2015). A cyber-physical systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. *Manufacturing Letters*, 3, 18–23. <https://doi.org/10.1016/j.mfglet.2014.12.001>

9. Davlat statistika qo‘mitasi. *Sanoat korxonalari tomonidan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida statistik ma’lumotlar (2024)*. – Toshkent.

10. Karimov, A. N. (2023). Sanoat 4.0: O‘zbekiston sharoitida kadrlar tayyorgarligining yangi yondashuvlari. *Oliy ta’lim muammolari*, №2 (48), 45–56.

11. ILO. *Skills for a greener and more digital future: Policy responses in Asia and the Pacific*. – Bangkok: International Labour Organization, 2022.

12. OECD. *Getting Skills Right: Future-Ready Adult Learning Systems*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. Kim, S., & Park, J. (2021). Industry–University Collaboration Models in South Korea: Lessons for Developing Countries. *Journal of Technology Management & Innovation*, 16(3), 89–98.
14. Kodirov I, Training engineers on the basis of dual education through the cooperation of karshi state technical university and muborak thermal power center enterprise, *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, Volume:12,Issue09, September-2025. Манба: <https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4129>
15. Rebeka C. Tucker, Sarita J. Robinson, Champika L. Liyanage, Proceso L. Fernandez Jr., Leah Amor Cortez, Darryl Roy Montebon, Sarintip Tantane, Sorraya Khiewnavawongsa, Nida Chaimoon, K. D. N. Weerasinghe, K. S. L. Gunawardena & Ranjith Dissanayake, Манба: Bridging Academia and Enterprise: A Framework for C. Success. Манба: <https://link.springer.com/article/10.1007/s13132-024-02360-7>
16. Низамов А.Б ва бошқалар, Енгил Саноат Тармоқлари Рақобатбардошлик Омиллари Баҳолаш. 2023 *Miasto Przyszłości*, 36, 186–188. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1500>
17. ШИШ оғлы Ганиев, АО Очилов, МИШ кизы Суюнова, Актуальные вопросы цифровой трансформации в Новом Узбекистане и за его пределами, Экономический профессиональный журнал. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
18. ODX G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Ilm fan xabarnomasi, Yurtimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari.



https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:qUcmZB5y_30C

19. IFS G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, ilm fan xabarnomasi, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini samarali boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari,

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:ZeXyd9-uunAC

20. ASA G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Priority directions for effective human resource management in the context of the digital economy in the republic of Uzbekistan,

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:hC7cP41nSMkC